



WONDERS OF THE OLD VARDONZE FORTRESS ARCHAEOLOGICAL MONUMENT LANGUAGE

Maftuna I. Usmonova

Master Student

National University of Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Vardonze, fortress, tourism, monument, step, reconstruction, Burqi Sarmast, Shapur.

Received:

Accepted:

Published:

Abstract: This article presents the current state of the old Vardonze settlement, which is one of the ancient settlements of our country, but is neglected today, and the idea of establishing tourist settlements in the area.

KO'HNA VARDONZE QO'RG'ONI ARXEOLGIK YODGORLIGI TILSIMLARI

Maftuna I. Usmonova

Magistrant

O'zbekiston Milliy universiteti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Vardonze, qo'rg'on, turizm, yodgorlik, qadamjo, rekonstruksiya, Burqi Sarmast, Shopur.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizning qadimiy manzilgohlaridan biri bo'lgan ammo bugungi kunda qarovsiz qoldirilgan ko'hna Vardonze maskanining bugungi holati va hududda turistik manzilgohlarni tashkil etish go'yolari ilgari surilgan.

ЧУДЕСА АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ПАМЯТНИКА СТАРАЯ КРЕПОСТЬ ВАРДОНЗЕ

Мафтунa И. Усмонова

магистрант

Национальный университет Узбекистана

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Вardonze, крепость, туризм, памятник, ступень, реконструкция, Бурки Сармаст, Шапур.

Аннотация: В данной статье представлено современное состояние старого городища Вardonze, которое является одним из древних поселений нашей страны, но сегодня заброшено, и идея создания в этом районе туристических поселений.

KIRISH

Turizm bugungi kunda tez rivojlanayotgan va daromadi bo'yicha yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. Shu bois yurtimizda turizmni rivojlantirish maqsadida turli tadbir va loyihalar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 5-yanvar kuni "Turizmni tezkor rivojlantirishga doir chora tadbirlar rejasi" to'g'risidagi farmonni va qarorni¹ imzoladi. Ushbu qarorga muvofiq 6 yillik rejalar asosida 2019-2025 yillar oralig'ida O'zbek turizmini jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga yetkazish ko'zda tutilgan edi. 2025-yilga kelib turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,3 foizdan (2017 y) 5 foizga, xorijiy sayyohlar sonini esa 9-10 million nafarga, jumladan uzoq xorijiy mamlakatlardan keluvchi turistlar sonini 2 milliongacha oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, turizm eksporti hajmini 950 million dollardan, 2,2 milliard dollargacha oshirish kutilmoqda. Joylashuv muassalari sonini 850 tadan 3000 tagacha chiqarish rejalashtirilgan. So'nggi 3 yil davomida boshqa mamlakatlardan tashrif buyuruvchi turistlar soni 5 martaga turizmdan keluvchi daromad 5,2 martaga oshdi.

ASOSIY QISM

Xususan, O'zbekistonda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zaminida iqtisodiyotni liberallashtirishni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, barcha sohalarni, xususan, xizmat ko'rsatish sohasining etakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan turizmni ham barqaror rivojlantirish yotibdi.

O'zbekiston – tarixiy yodgorliklar, muqaddas qadamjolariga boy yurt sifatida ulkan turistik salohiyatga ega. Mamlakatingizda bu yuksak salohiyatni butun dunyoga namoyish etish uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy jihatdan katta qadamlar tashlanayotgani quvonarlidir. O'zbekiston zamini qadimdan Buyuk ipak yo'li chorrahasidagi ulkan salohiyatga, tabiiy, tarixiy va madaniy boyliklarga, go'zal an'ana va urf-odatlariga ega hudud sifatida butun dunyo e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lgan. Bugungi kunda mamlakatimiz nafaqat siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy sohalarda, balki turizmda ham yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi.

Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan hali ham yurtimizning turistik salohiyatga ega bo'lgan ba'zi hududlari hamon qarovsiz qolib ketmoqda. Shunday maskanlardan biri Buxoro viloyatining shimoli-g'arbiy qismida, Shofirkon tumani hududida joylashgan ko'hna Vardonze maskanidir.

Vardonze (**Varzonze, Vardona, Vardonzi**) – O'zbekistonning Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi qo'rg'on (VI-XIX asrlar). Qo'rg'onning uzunligi 110 metr, kengligi 60-70 metr, balandligi 45-50 metr. Vardonxudotlarning maxsus qarorgohi bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Shopurkom atamasi Sosoniylar shahzodasi Shopur ismidan olingan. Shopur Buxoroga kelib,

¹ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 5-yanvar kuni "Turizmni tezkor rivojlantirishga doir chora tadbirlar rejasi" to'g'risidagi farmonni va qarorni

Buxorxudotdan yer olib qasr va qishloq qurdirgan va ariq keltirgan. Narshaxiyning yozishicha, bu katta bir qishloq bo'lib, ko'handizga, katta va mustahkam hisorga ega bo'lgan. U Turkistonning chegarasida joylashgan. U joyda har haftada bir kuni bozor bo'lib, savdogarlar ko'p kelgan. Arablar hujumi arafasida (VIII asr boshi) Vardonze Buxorodan alohida mustaqil podsholik poytaxtiga aylangan. Vardonze hukmdori Vardonxudot arablar uchun Buxorxudotlardan xavfliroq bo'lgan. Amir Temur Turonda hokimyatni egallashdan avval opasi va boshqa yaqinlarini Vardonze va Zandanachida qoldirgan. Vardonzeda to'qilgan kalapo'sh Makkaga olib borilgan. Bundan ko'rinadiki Vardonze savdoda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. XVIII-XX asr boshlarida Vardonze Buxoro amirligining Shofirkon tumani markazi bo'lgan. XVII-XIX asrlarga kelib Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi ichki nizolardan Vardonze ancha jabrlangan. Sadriddin Ayniyning guvohlik berishicha, 1880-yillarda Vardonze va uning atroflari qattiq shamol natijasida kuchli qum bosadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Vardonze XX asr boshida ham obod bo'lib, savdo va hunarmandchilik markazi sifatida o'z mavqeini saqlab qolgan.

Vardonze va uning atroflari Buxoro amirligi qizil askarlar tomonidan tugatilgach, BXSr da boshlangan mujohidlar harakatining asosiy markazlaridan biriga aylandi (1920-1924-yillar). Aholi 1954-yilgacha Vardonze qo'rg'onida yashagan, so'nggi qum bosishidan keyin uni tark etishga majbur bo'lgan. Bugungi kunga kelib Vardonze o'rnida qo'rg'on tepalik mavjud. Qo'rg'onning ustida marmartosh saqlanib qolgan. Hozirgi paytda qo'rg'on atrofi nurab ancha yemirilib, ayrim joylari o'pirilib ketgan. Bu hududda Qo'rg'on Vardonze, Ko'hna Vardonze qishloqlari mavjud. Vardonze davlat tabiat yodgorligi tashkil qilingan.

Qal'a hududi 1979-yil qo'riqxonaga aylantirildi, deya eslaydi uzoq yillar shu go'shani asrab-avaylash bilan mashg'ul bo'lgan 86 yoshli otaxon Ashur Oripov. "Yon-atrof saksavulzor-u yulg'unzor edi. Turli o'simliklar shu qadar tig'iz o'sardiki, ular orasidan hatto mushuk o'tolmasdi. Ba'zan o'zim ham adashib qolardim. Tustovuq, tulki, quyon ko'p bo'lar edi. Qushlarning ming bir turi uchrardi. Qish o'ta sovuq kelgan yillarda jonivorlar ochlikdan nobut bo'lmasin deb, beda va boshqa yeguliklar tashlab chiqqanimizni ham yaxshi eslayman"-deydi Ashur Oripov.

Qo'rg'onga chiqish qulay bo'lishi uchun hashar yo'li bilan zinapoya tiklangan. Viloyat madaniy meros boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, "Vardonze qo'rg'oni" O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-sonli qarori bilan davlat muhofazasiga olingan. Hududi Shofirkon tumani hokimining 2015-yil 29-yanvardagi 40-sonli qaroriga asosan 76 gektardan iborat. Lekin qo'rg'onda bo'lganimizda biror joyda ushbu madaniy meros obyektining davlat muhofazasiga olingani to'g'risidagi yozuvni uchratmadik. Qal'ani asrab-avaylash, bu yerda ma'lum bir infratuzilma yaratish, turistlarni jalb qilish ishlari o'lda-jo'lda. Vaholanki, qishloq keksalarining eslashlaricha, yaqin o'tmishda bu maskan xorijiy sayyohlar ko'p

tashrif buyuradigan joy bo'lgan. "Tuya, ot, foytunlar bor edi, sayyohlar qadami uzilmasdi, qo'rg'on tepasiga chiqish qulay bo'lsin deb, hashar yo'li bilan 183 ta zinapoya ham qilganmiz" deydi Ashur Ota.

Yodgorlikni ilmiy o'rganish maqsadida bir necha yillar mobaynida belgilangan tartibda O'ZFA Milliy arxeologiya markazi hamda Italiyaning Rim Universiteti hamkorligida xalqaro qo'shma arxeologik qazishma ishlari olib borildi. Madaniy meros boshqarmasi mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, birlamchi konservatsiya qilinyapti. Shuningdek, obyektni YUNESKO ning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish maqsadida Xalqaro Markaziy Osiyo tadqiqotlar instituti (MITSAI) bilan hamkorlikda ilmiy ishlar olib borilmoqda.

XULOSA

Hozirgi kunga kelib qo'rg'on joylashgan hudud Hazrati Burqi Sarmast ziyoratgohi nomi olgan. Buxoro tarixidan ham qadimiyroq tarixga ega deb qaraladigan bu tarixiy qadamjoy hozirgi kunda qarovsizlikdan nurab yotibdi. Tabiiy ofatlar natijasida qo'rg'onning bir tomoni qulab tushay degan ahvolda. Qo'rg'on hududi davlat muhofazasiga olingan deyilsada amalda buni tasdig'ini ko'rmayapmiz. Bu haqida na biror yozuv bor na biror belgi. Qo'rg'on hududida bir nechta tarixiy tadqiqot guruhlaridan arxeologik qazishma ishlari olib borilgan bo'lsada biroq ularning birortasi nihoyasiga yetkazilmagan. Eng dahshatlisi esa qazishmalar davomida topilgan sopol buyumlarning parchalari qo'rg'on atrofida sochilib yotganligida. Qazishma ishlari natijasida ko'plab xonadonlar qoldiqlari topilgan. Vardonze aholisi qadimdan beton qorishmalaridan foydalanganligi qazishmalar paytida uylarning burchaklaridan chiqqan beton qorishmalarida o'z aksini topgan. Bugungi kunga kelib mana shunday ko'hna tarixga ega bo'lgan qal'a qarovsiz qoldirilgan. Bunday ko'hna tarixga ega bo'lgan qadamjoyni asrab-avaylash, uni kelajak avlodga tarix nishonasi sifatida bus-butunligicha yetkazib berish bizning burchimiz emasmi? Agarda qo'rg'ondagi qazishma ishlari nihoyasiga yetkazilsa tariximizga oid yangi ma'lumotlar, nodir buyumlar bilan fondimiz boyib qolardi. Qo'rg'on hududi faqatgina qog'ozda emas balki amalda ham davlat muhofazasiga olinsa, rekonstruksiya ishlari amalga oshirilib turistlarni jalb qilish ishlari olib borilsa foydadan xoli bo'lmas edi. Chunki bugungi kunda ushbu hudud mahalliy aholi uchun asosiy turistik zona bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. *Abdulla R "Shofirkon yulduzlari". Buxoro, 2004 (79-b)*
2. Karimov, N. R. (2018). Some researches on Abu Isa Tirmidhi in European countries. *International Journal of Current Research*, 10(12), 76170-76173.
3. *Mahmud ibn Vali "Geografiya". Toshkent, 1997 (22-b)*
4. Nematov, O. THE PILGRIMAGE OF KHAZRAT ZAYNULOBIDIN. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 83.
5. *Muxtorov S, Bobomurodov K "Shofirkon tarixi ". Buxoro, 1998 (184-185 b)*

6. Mukhamedov, O. L., & Gudalov, M. R. (2021). Territorial Location Of Settlements Of Jizzakh Region And Migration Processes In Them. *NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal*| NVEO, 15511-15515.
7. *Narshaxiy "Buxoro tarixi". Toshkent.: Sharq bayozi. 1993 (34-35 b).*
8. Yunusova, G. D. (2021). Aspect and modal meanings of auxiliary verbs in Korean language. *International Journal of Linguistics, Literature and Culture*, 7(5), 339-343.